



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA ISLOMIY BANK XIZMATLARINI JORIY ETISH MASALALARI

Ergasheva Dilnoza Anvar qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ORCID: 0009-0003-0193-1659

anvara0035@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom taraqqiyot banki (ITB) guruhiga a'zo-mamlakatlar va tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini rivojlantirishda mavjud muammolar tahlili hamda rivojlantirish istiqbollari takomillashtirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqolada islomiy bank xizmatlaridan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida foydalanishni rivojlantirishda mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, islom moliyasi, mushoraka, sukuk, mudoraba, murobaha, moliyalashtirish, islom banklari, Islom taraqqiyot banki, islomiy bank xizmatlari.

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ ИСЛАМСКИХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Эргашева Дилноза Анвар кизи

Термезский университет экономики и сервиса

Аннотация. В статье рассматриваются пути развития исламских банковских услуг в деятельности стран-членов Группы Исламского банка развития (ИБР) и коммерческих банков, а также анализ существующих проблем и улучшение перспектив развития. В статье также представлены существующие на сегодняшний день проблемы в перспективах развития использования услуг исламского банкинга в деятельности коммерческих банков Республики Узбекистан, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, исламские финансы, мушоракка, сукук, мудоракка, муробаха, финансирование, исламские банки, Исламский банк развития, услуги исламских банков.

ISSUES OF IMPLEMENTATION OF ISLAMIC BANKING SERVICES IN THE COMMERCIAL BANKS

Ergasheva Dilnoza Anvar kizi

Termez University of Economics and Service

Abstract. This article discusses the ways of developing Islamic banking services in the activities of commercial banks and member countries of the Islamic Development Bank (IDB) group, as well as an analysis of existing problems and improving development prospects. The article also presents the existing problems in the prospects for developing the use of Islamic banking services in the activities of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, as well as the author's approaches and proposals for their elimination.

Keywords: commercial banks, Islamic finance, musharaka, sukuk, mudaraba, murabaha, financing, Islamic banking, Islamic Development Bank, Islamic banking services.

Kirish.

Bugungi kunda islom banklarida an'anaviy bank oreratsiyalarining deyarli barcha oreratsiyalarini amalga oshirilmoqda. Ular sanoat, qishloq xo'jaligi, tijorat va xizmat ko'rsatish sohalarni rivojlantirishga katta mablag'larni investitsiya qilmoqda. Islom banklarida an'anaviy bank oreratsiyalarining deyarli barchasi, ya'ni depozit, kredit, akkreditiv, hisob – kitob, to'lov oreratsiyalari amalga oshiriladi. Xususan, jahonning 40 dan ziyod mamlakatlarida islom banklari faoliyat yuritmoqda.

Bankir va olim Barlton o'zining "Rivojlanayotgan bozorlardagi banklar" asarida islom banklari faoliyatini har tomonlama tahlil qilgan. Uning tahliliga ko'ra, islom banklari kapitali yiliga 10-15 foiz sur'at bilan o'smoqda. Bu esa moliya sohasida juda yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotida an'anaviy banklar pulni daromadi kafolatlangan sotish yoki ijaraga berish mumkin bo'lgan mahsulot sifatida ko'radi, chunki berilgan qarz mablag'larini yo'qotish xavfi juda kam (qarz mablag'lari ham, qarz bo'yicha foizlar ham loyihaning muvaffaqiyati yoki inqirozidan qat'iy-nazar doimo kafolatlangan bo'ladi), islom banki esa o'zini biznes bo'yicha hamkordek tutadi va hamkorlikning turiga qarab xavflarni bo'lishadi. Barchaga ma'lumki, agar ikki tomon xatar va yo'qotishlarni o'zaro bo'lishsa ular moliyaviy amaliyotlarda ehtiyotkorlik bilan ish tutadi. Shu tariqa, islom moliyasi adolatliroq, moliyaviy barqaror hamkorlik muhiti yaratilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda bu borada dunyo olimlari tomonidan islom moliya instrumentlaridan foydalanish yo'llari bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar qilingan, kitoblar yozilgan va ta'riflar berilgan. Xususan, Xalqaro valyuta fondining sobiq rahbari Kristin Lagardning fikricha: "Islomiy moliya, umuman olganda, mamlakatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash rotensialiga ega, chunki uning uning risklarni taqsimlash xususiyati moliyaviy qarzдорlikni kamaytiradi, moliyalashtirish esa aniq bir aktivlarga bog'langan va shu sababli to'liq kafolatlangan" deya o'zining fikrini bildirgan (Рамблер, 2024).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi" deb ta'kidlab o'tdi (Murojaatnoma, 2020). Ahmadning islom bankchiligi haqidagi ilmiy qarashlari uning islom tamoyillari va qadriyatlariga mos keladigan moliyaviy tizimni rivojlantirish istagini aks ettiradi. U bank muassasalari faoliyatida axloqiy tamoyillar, barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni talab qiladi deya ta'kidlaydi (Ahmad et al., 2014). Kharon kabi boshqa islom ulamolari «islom iqtisodi adolat, altruizm, hamkorlik, xolislik, mo'tadillik va e'tibor kabi axloqiy qadriyatlarga asoslanganligini ta'kidlaydilar. Shunga ko'ra, nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ham ana shu qadriyatlarni hisobga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Shuningdek ular, islom va tijorat banklari tushunchalarini ajratish taklif qiladi, chunki islom banklari islom huquqi yoki shariat qonunlariga asoslangan faoliyat tamoyillarini hisobga olgan holda bank faoliyatini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan muassasalar, tijorat banklari esa, aksincha faqat biznes maqsadlariga erishish uchun unda diniy ta'limotlar umuman hisobga olinmaydi» deya ta'kidlashadilar (Kharon et al., 2012). Bangladeshlik olim Xon (2013) taniqli islom iqtisodchisi va faylasufi bo'lib, islom moliyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning islom bank ishi haqidagi ilmiy qarashlari islom huquqi (shariat) va iqtisodiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Xonning fikricha, islom banklari ko'pincha foiz stavkalari asosida qarz oluvchilar bilan shug'ullanadigan an'anaviy tijorat banklaridan farqli ravishda "risk va mukofot" tamoyiliga amal qilishi kerak. Uning fikricha, foizdan foydalanish shariatga ziddir, chunki bu islomda taqiqlangan noaniqlik yoki tavakkalchilikdan foyda olishni anglatadi. Buning

o'rniga Xon islom tamoyillari asosida tadbirkorlar va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida jamg'armalar va investitsion hisobvaraqlar tashkil etishni qo'llab-quvvatlaydi (Xon, 2013). O'z navbatida Az-Zuhayli (2003) «islomiy moliya banking asosiy maqsadi musulmon jamiyatini qayta tiklashni tashkil etish va musulmonlar o'rtasidagi hamkorlikni islom qonunlari bilan kelishuv asosida amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empiric tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan tijorat banklarida islom bank xizmatlaridan foydalanish usullarining tashkiliyhuquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom taraqqiyot banki (ITB) xalqaro moliya tashkiloti bo'lib, 1973 yilning 18 dekabr kuni Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlari moliya vazirlari yig'ilishining qaroriga ko'ra ta'sis etilgan va 1975 yil oktyabr oyida o'z faoliyatini boshlagan (2014 yilning iyunida ITB boshqaruvchilarining yillik yig'ilishida Bank faoliyat boshlaganining 40 yilligi (hijriy hisob bo'yicha) nishonlandi). IHT a'zosi bo'lgan har bir mamlakat ITB a'zosi bo'lish huquqiga ega. Bank tashkil etilayotgan vaqtda uning a'zolari 22 ta musulmon davlatidan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib ITBga ishtirokchi a'zo davlatlar soni 57 tadan oshgan bo'lib, mamlakatimiz 2003 yildan ITBning a'zosi hisoblanadi. Bankning asosiy hissadorlari sifatida Saudiya Arabistoni, Liviya, Eron, Nigeriya, BAA, Qatar, Misr, Quvayt va Turkiya davlatlari hisoblanadi. ITBning bosh qarorgohi Saudiya Arabistonining Jidda shahrida joylashgan bo'lib, ITBning hududiy vakolatxonalari 1994 yili Rabot shahrida (Marokash), huddi o'sha yili Kuala-Lumpur shahrida (Malayziya), 1997 yili Olma-Ota shahrida (Qozog'iston), hamda 2008 yili Dakar (Senegal)da ochilgan. SHuningdek, ITBning Misr, Turkiya, Indoneziya, Bangladesh va Nigeriyada ham vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. ITBning asosiy vazifasi a'zo-mamlakatlarda islom dini talablariga muvofiq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashdan iborat, shu jumladan:

- qashshoqlik darajasini pasaytirishga ko'maklashish;
- savdo-iqtisodiy hamkorligini rivojlantirish;
- mehnatga yaroqli aholi uchun ta'lim dasturlari va tadqiqotlarni tashkil etish;
- a'zo-mamlakatlarga favqulodda holatlarda yordam ko'rsatish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha boshqa turli dasturlarni amalga oshirish.

ITB a'zo-mamlakatlarda davlat va xususiy tarmoqqa qarashli yo'llar, kanallar, to'g'onlar, maktablar, kasalxonalar, uy-joylar, qishloq tumanlarini rivojlantirish va boshqa shu kabi qishloq xo'jaligi va infratuzilma loyihalarini moliyalashtiradi. Ushbu loyihalar a'zo-mamlakatlar ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tashkil topgan vaqtdan boshlab 2021 yil yakuni holatiga ko'ra ITB guruhining butun dunyo bo'ylab moliyalashtirgan loyihalarining umumiy qiymati 183 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga kiruvchi Xususiy tarmoqni rivojlantirish islom korporatsiyasi (ICD) va London fond birjasi guruhi (LSEG) jahonda islom moliyasi rivojlanishiga oid o'zining yillik hisobotini e'lon qildi. Hisobotga ko'ra jahon islom moliyasi aktivlar hajmi 2023 yilda 4,9 trln AQSh dollariga yetgan hamda o'tgan yilga nisbatan 11% ga o'sish qayd etilgan.

Sohalar bo'yicha olganda islom bankchiligi aktivlar qiymati 3,5 trln AQSh dollariga (umumiy aktivlarning 73%i), sukuk aktivlar qiymati 863 mlrd AQSh dollariga (18%) yetgan. Aktivlarning qolgan qismi islomiy fondlar (5%), takoful (2%) va boshqa islom moliya institutlari (3%) hissasiga to'g'ri keladi.

Undan tashqari hisobotda Islom moliyasi rivojlanish ko'rsatkichlari (IFDI) bo'yicha davlatlar reytinglari ham e'lon qilingan. Ushbu ko'rsatkichlar moliyaviy faoliyat, boshqaruv, barqarorlik, bilim va xabardorlik kabi yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, 2023 yilgi reytingda Malayziya 1-o'rinni olgan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarni esa mos ravishda Saudiya Arabistoni va BAA davlatlari egallagan.

Ushbu hisobot har yili e'lon qilinib, unda keying besh yil uchun islom moliyasi aktivlar hajmi prognoz ham qilinadi. Bu yilgi hisobotga ko'ra butunjahon islom moliyasi sanoati aktivlar hajmi 2028 yilga borib 7,5 trln AQSh dollaridan oshishi bashorat qilingan.



1-rasm. Islom moliyasi aktivlar hajmi prognozi

O'zbekiston bilan hamkorlik doirasida, ITB guruhi sog'liqni saqlash, energetika, qishloq xo'jaligi, qurilish, maktab va kollejlarni jihozlash, avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash, davlat moliya tizimida islohotlar o'tkazish kabi sohalaridagi loyihalarni (ja'mi 86 loyiha) moliyalashtirish uchun 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish haqida qaror qabul qilgan va shundan 1,1 mlrd. AQSH dollaridan ziyod qismi bugungi kungacha moliyalashtirilgan (Isdb.org, 2019).

Xulosa va takliflar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda Islom moliyasini yanada rivojlantirish uchun jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Xususan:

- Halqaro hamkorlik: Halqaro Islom moliyasi institutlari bilan hamkorlikda huquqiy asoslarni yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

- Mikromoliya tashkilotlari uchun qoidalar: 2024yil 27 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 3536-sonli qarori bilan "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomga ko'ra, mikromoliya tashkilotlari salam, muzoraba, mushoraka, murobaxa, istisna va ijara kabi mahsulotlar orqali mijozlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

BMT 2019 yilda O'zbekistonda Islom moliyasiga bo'lgan ehtiyoj, uning huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari o'rgandi. Ushbu tadqiqot mamlakatda Islom moliyasi uchun katta bozor salohiyati mavjudligini ko'rsatdi. 2020 yilda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari shunga dalildir:

- tadbirkorlarning 38 foizi va jismoniy shaxslarning 56 foizi an'anaviy bank kreditlaridan foydalanishni rad etishgan;

- agar Islom moliya muassasalari tashkil etilsa, tadbirkorlarning 61 foizi va aholining 75 foizi ularning xizmatlaridan foydalanishga tayyor ekanini bildirgan.

Islomiy mikromoliyalashtirish institutlari mavjud resurslarni samarali safarbar qilish orqali o'z vazifalarini bajarishi mumkin. Quyidagi chora-tadbirlar ichki bozor resurslaridan foydalanishga yordam beradi:

- islomiy bank darchalarini tashkil etish orqali depozitlarni jalb qilish va likvidlikni ta'minlash;
- an'anaviy banklar va islomiy mikromoliya tashkilotlari o'rtasida hamkorlik: Islom moliyasi qoidalariga muvofiq, muzoraba va mushoraka mexanizmlari asosida resurslarni jalb qilish hamda moliyaviy muammolarni hal qilish;
- sukuk qimmatli qog'ozlarini joriy qilish: uning huquqiy asoslarni shakllantirib, xalqaro va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish;
- ijtimoiy Islom moliyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi orqali Vaqf mulkchiligi huquqiy asoslarini yaratish: "Naqd pul vaqfi" modelini joriy etish va vaqf manbalaridan samarali foydalanish;
- islomiy P2P platformalarini yaratish: kraudfanding va onlayn platformalar orqali sarmoyalarni jalb qilish va mikromoliyalashtirishni taqdim etish tizimini rivojlantirish;
- takaful tizimini rivojlantirish: Islom huquqiga muvofiq sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va takaful operatorlarini qo'llab-quvvatlash.

Islom moliyasining samaradorligini oshirish, uni adolatli va shaffof ishlashini ta'minlash, shuningdek, mavjud qiyinchiliklarni tezkor hal etish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonidagi vazirlik va idoralar o'rtasidagi samarali hamkorlik usullarini Islom moliyasini joriy etishda ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Islom moliyasi bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi moliyaviy institutlar va tashkilotlarning ro'yxati, ular ko'rsatayotgan xizmatlar va shariat qoidalariga mosligini tasdiqlovchi hujjatlar tegishli mas'ul vazirlik yoki idoralarning maxsus veb-saytlarida joylashtirilishi zarur. Bu choralar Islom moliyasini joriy etish va rivojlantirish jarayonida shaffoflik va ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Absamatov A.E. (2023) *Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning nazariy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, noyabr.197-204 b. VIISON-NOYABR.*

Al-Zuhaili W. (2003) *Financial Transactions in Islamic Jurisprudence. Vol. 1. Beirut (Lebanon): Dar al-Fikr.*

Hassan K.M., Lewis M.K. (2007) *Handbook of Islamic Banking. 433 p.*

Isdb.org. (2019). *Islamic Development Bank. [online] Available at: <https://www.isdb.org/>*

Khan M.F. (2013). *Money and Banking in Islam. Institute of Policy Studies.*

Kharon S., Nursofiza V., Azmi V. (2012) *Islamskaya finansovaya i bankovskaya sistema: Filosofiya, printsipy i praktika. Kazan': Linova-Media, 536 p.*

Murojaatnoma (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>*

Zawawi, N. A. W. A., Ahmad, M., Umar, A. A., Khamidi, M. F., & Idrus, A. (2014). *Financing PF2 projects: Opportunities for Islamic project finance. Procedia engineering, 77, 179-187.*

Рамблер/новости. (2024). *Кристин Лагард сегодня: свежие новости о персоне Кристин Лагард. [online] Available at: <https://news.rambler.ru/person/lagard-kristin/>*

Святослав Поляков (2023). *Как растет и ширится по миру исламский банкинг. [online] Kursiv Media Узбекистан. Available at: <https://uz.kursiv.media/2023-10-08/islamskij-banking-v-mirovoj-finansovoj-sisteme-vyvody/>*